



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'UYALAR



YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNI JADALLASHTIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI

Kudiyarov Aybek Alisherovich

Qoraqalpoq davlat universiteti,
Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
mutaxassisligi 1-kurs magistranti,
Kudiyarov.aybek@gmail.com
+998937755790

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqotda yashil iqtisodiyotga o'tish va bu jarayonni jadallashtirishda innovatsiyalarning roli va ularni joriy etishning nazariy jihatlari ko'rib chiqilgan. Tahlil natijasida tegishli xulosalar shakllantirilgan.*

Kalit so'zlar: *yashil iqtisodiyot, innovacion faoliyat, energiya manbalari, iqtisodiy o'sish, organik mahsulotlar, "yashil" texnologiyalar.*

Аннотация: *В данном исследовании рассматривается роль инноваций в переходе к зеленой экономике и ускорении этого процесса, а также теоретические аспекты их внедрения. В результате анализа были сделаны соответствующие выводы.*

Ключевые слова: *зеленая экономика, инновационная деятельность, источники энергии, экономический рост, органическая продукция, "зеленые" технологии.*

Abstract: *This study examines the role of innovations in the transition to a green economy and accelerating this process, as well as the theoretical aspects of their implementation. Based on the analysis, relevant conclusions were drawn.*

Keywords: *green economy, innovation activity, energy sources, economic growth, organic products, green technologies.*

Hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari "yashil" taraqqiyot yo'liga o'tmoqda. Bu jarayonlar iqlim o'zgarishi, atrof-muhit ifloslanishi va tabiiy resurslar kamayishi tufayli ro'y bermoqda. Atmosferada issiqxona gazlari konsentratsiyasining ortishi global isishga olib keladi, bu esa ekstremal ob-havo hodisalari, muzliklarning erishi, harorat anomaliyalarini keltirib chiqaradigan asosiy omildir. "Yashil" yo'nalishga o'tish iqtisodiyot va ijtimoiy hayotni to'liq transformatsiya qilishni, an'anaviy, uglerodni ko'p talab qiladigan energiya manbalaridan ekologik toza va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tishni nazarda tutadi.

Innovatsiyalar, ayniqsa, uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy o'sishning muhim omili ekanligi haqida keng tarqalgan tushuncha mavjud. Xo'sh, innovatsiyalarning iqtisodiy o'sishga qo'shadigan hissasini qanday chora-tadbirlar belgilab beradi? Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining tahliliga ko'ra, innovatsiyalar quyidagi belgilar bilan tavsiflanadigan muhitda gullab-yashnashini ko'rsatadi:[1]



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



✓ Yangi g'oyalar va texnologiyalarni yaratish va ularni bozorga joriy etish uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, jamiyatdagi texnologik o'zgarishlarga moslasha oladigan yuqori malakali ishchi kuchi. Shunday ekan, ta'lim va kasbga tayyorlash tizimidagi, shuningdek, ko'nikmalarni shakllantirish siyosatidagi islohotlar innovatsiyalar uchun muhim ahamiyatga ega. Ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika sohasi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan chora-tadbirlar kuchaytirilishi zarur.

✓ Texnologiyalar va intellektual kapitalga investitsiyalarni rag'batlantiruvchi sog'lom biznes muhitini yaratish zarur. Ya'ni, bunday muhit innovatsion firmalarga yangi g'oyalar, texnologiyalar va biznes modellari bilan tajriba o'tkazish imkonini beradi hamda ularga o'sish, bozordagi ulushini oshirish va yangi ko'larga erishishga yordam beradi. Bilimlarning xorijiy manbalarga ochiq bo'lishi innovatsiyalar uchun ham muhim, chunki innovatsiyalarning aksariyat qismi milliy chegaralardan tashqarida paydo bo'ladi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotning savdo, investitsiyalar, bilimlar oqimi va odamlar uchun ochiqligini oshirish maqsadida islohotlar o'tkazishni talab etadi.

✓ Yangi bilimlarni yaratuvchi va ommalashtiruvchi kuchli va samarali tizim zarur. Bunday tizim inson resurslari, texnologiyalar transferi va bilimlar bozorini shakllantirish kabi qator mexanizmlar orqali yangi fundamental bilimlarni kashf etib, ularni butun jamiyat miqyosida tarqatib boradi. Ya'ni, kuchli va yaxshi boshqariladigan universitetlar va davlat ilmiy-tadqiqot institutlari, shuningdek, ta'lim institutlarining iqtisodiyot va jamiyat bilan o'zaro hamkorligini qo'llab-quvvatlaydigan va yengillashtirib beradigan mexanizmlar innovatsion faoliyatni faollashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

✓ Firmalarning innovatsion va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishini rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar. Innovatsiyalar yo'lidagi qator to'siqlarni bartaraf etish uchun ko'pincha maqsadga yo'naltirilgan choralar zarur. Bunday chora-tadbirlar sifatida, ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirilgan investitsiyalar uchun soliq imtiyozlari taqdim etish; grantlar, subsidiyalar berish va innovatsion tanlovlar o'tkazish orqali to'g'ridan-to'g'ri davlat qo'llab-quvvatlashni; hamkorlikni rag'batlantiruvchi boshqa chora-tadbirlarni qayd etish mumkin. Bunday chora-tadbirlar innovatsiyalar bozorini mustahkamlashga ko'maklashishi va ularni aniq vazifalar va imkoniyatlarga, masalan, yashil o'sishga yo'naltirish imkonini beradi. [2]

2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4470-sonli Prezident qarori bilan 2019-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish STRATEGIYASI tasdiqlangan bo'lib, unda innovatsiyalar va innovatsion yechimlarga alohida ahamiyat berilib, "yashil" iqtisodiyotga o'tishning bir qancha yo'nalishlarida belgilab berilgan:

- qurilish materiallari ishlab chiqarishda innovatsion energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish;
- suv xo'jaligida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsiyalardan keng foydalanish;



- o'rmon xo'jaligida geoaxborot texnologiyalari va innovatsiyalardan keng foydalanish;
- "yashil" texnologiyalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini rivojlantirish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun tashkiliy tuzilmalar - texnologiyalarni yetkazib berish agentliklari, texnologik biznes-inkubatorlar, texnoparklar, klasterlar yaratish;
- "yashil" texnologiyalar sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash;
- "yashil" innovatsiyalarni joriy etishda xususiy investorlarga, shu jumladan, kichik biznesga ko'maklashish;
- ekoinnovatsion texnologiyalarni yanada samarali joriy etish uchun ilmiy-tadqiqot muassasalarining kadrlar va texnik salohiyatini oshirish. [3]

Shuningdek, 02.12.2022-yildagi PQ-436-sonli "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori bilan tasdiqlangan dasturda "yashil" iqtisodiy o'sishni ta'minlash vazifalarini belgilashda 6 ta muhim yo'nalishlardan biri sifatida "innovatsiyalarni joriy etish va samarali "yashil" investitsiyalarni jalb qilish" yo'nalishi belgilangan. [4]

Ekologik toza texnologiyalarni joriy etish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham manfaatli bo'ladi. 2025 yil O'zbekistonda "Atrof-muhitni muhofaza qilish va "yashil iqtisodiyot" yili deb e'lon qilindi. Bu qadam mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda ekologik kun tartibining muhimligini ko'rsatadi. Yashil texnologiyalar esa barqaror o'sish uchun eng istiqbolli yo'nalish sifatida qaralmoqda. Bu sohadagi innovatsiyalar energetika, qishloq xo'jaligi, sanoat va transport sohalariga ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun katta imkoniyatlar ochadi. Quyosh va shamol energiyasining boy zaxiralari O'zbekistonni qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish uchun jozibador mamlakatga aylantirmoqda. Bu mamlakatimizning energetik mustaqilligini mustahkamlaydi. Sanoat korxonalari resurs tejamkor texnologiyalarga o'tib, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartiradi va zararli moddalar chiqishini kamaytiradi. Natijada mahalliy mahsulotlar jahon bozorlarida raqobatbardosh bo'ladi.

Yashil texnologiyalarni joriy etish iqlim o'zgarishlariga moslashish qobiliyatini oshiradi, suv tanqisligi, yerlar degradatsiyasi va cho'llanishga qarshi kurashishga yordam beradi. Bundan tashqari, ekologik toza mahsulotlar eksporti, ayniqsa, organik mahsulotlar segmentida talab ortish tendensiyalari kuzatilayotgan xalqaro bozorlarga chiqish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Quyosh va shamol generatsiyasi kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish mamlakatning uglerod izlarini keskin kamaytiradi. Ekotizimlarni tiklash, jumladan, Orolbo'yi va boshqa hududlarni ko'kalamzorlashtirish orqali biologik xilma-xillik yaxshilanadi va iqlim o'zgarishining oqibatlari yumshatiladi. Suv resurslaridan samarali



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



foydalanish, jumladan, tomchilatib sug'orishni joriy etish qurg'oqchilik, cho'llanish va suv tanqisligiga qarshi kurashishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish natijasida, jumladan, qishloq xo'jaligida suv sarfi 25-30 foizga kamayadi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalarni, jumladan, "yashil" texnologiyalarni rivojlantirish istiqbollari hamda quyosh panellari, energiya tejamkor tizimlar kabi uskunalarni mahalliy ishlab chiqarish mamlakatimizda texnologik taraqqiyotni jadallashtiradi. Bunday holatda mamlakat "yashil" innovatsion tashabbuslar markazi, mintaqadagi qo'shnilar uchun "yashil" iqtisodiyot bo'yicha bilim va yechimlar eksportchisiga aylanishi mumkin. Shunday qilib, "yashil" taraqqiyot barqaror iqtisodiy o'sish va O'zbekistonning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omiliga aylanish imkoniyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. OECD (2013), Supporting Investment in Knowledge Capital, Growth and Innovation, OECD Publishing, Paris, <http://dx.doi.org/10.1787/9789264193307-en>.
2. OECD (2015), The Innovation Imperative: Contributing to Productivity, Growth and Well-Being, OECD Publishing, Paris. – 2015. – 267 p. – DOI: <http://dx.doi.org/10.1787/9789264239814-en>.
3. “2019 - 2030-jillarda O'zbekstan Respublikasini «jasil» ekonomikağa o'tiw strategiyasini tasdiqlaw haqqida”gi 2019-jil 4-oktyabr kungi PQ-4470-sanli Prezident qarari.
4. “2030-jilga shekem O'zbekstan Respublikasini «jasil» ekonomikağa o'tiwine qaratilgan reformalarni natijeliligini arttiriw boyinsha ilajlar haqqida”gi 02.12.2022-kungi PQ-436-sanli Prezident qarari.